

AKSILOGIK METAFORALARNING KOGNITIV MODELLASHISHI MASALASIGA DOIR

Zafar Pardayev

dotsent, filologiya fanlari nomzodi,

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, Chirchiq, O'zbekiston

E-mail: pzafar441@gmail.com

Annotatsiya. Antropotsentrik yondashuv zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Shunga bog'liq holda lingvistikada sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika kabi bir qator ilmiy sohalar rivojlanmoqda. Bu esa lingvistik tadqiqotlarda til va tafakkur, til va ong aloqalari tabiatiga yanada chuqurroq kirib borish uchun zamin yaratadi. Tilimizda metaforalardan keng foydalaniladi hamda fikrlarimizni ta'sirchan, jozibali qiladi. Metaforalar inson ongida avtomatik tarzda shakllanadigan fikrlar majmuasidir. Bu kognitiv metaforadir. U ham badiiy adabiyotda ma'lum janrlarni shakllantiruvchi, konseptlarni nutqiy faollashuvi va konseptuallashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada kognitiv metaforalarning namoyon bo'lishi usullari va modellashuvi masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: metafora, konsept, konseptosfera, konseptual metafora, freym, aksiologik baho, nutqiy tafakkur.

Zamonaviy tadqiqotlarda yetakchilik qilayotgan antropotsentrik nazariyaga ko'ra inson tabiat va jamiyatning asosiy figurasi bo'lib, u jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar markazida turadi. U obyektiv olamda yuz beruvchi turli voqea-hodisalar, harakatlardan ma'lum darajada ta'sirlanadi va o'z navbatida ularga munosabat ham bildiradi. Bu munosabat turli nutqiy vaziyatlarda har xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Tilshunoslikda semantika muammolarini insonlar ijtimoiy, madaniy-ma'naviy munosabatlariga bog'liq holda tadqiq etishni talab qiladi. Ana shunday hodisalar orasida metaforik ma'nolar obrazli tizimining baho ifodalashini kognitiv yo'nalishda o'rganish nafaqat lingvistik, balki etika va estetika nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir. Til tizimida aksiologik mazmunli lisoniy vositalar qatorida metaforalar ham o'z nominativ funksiyasidan tashqari subyektiv emotsional-ekspressiv munosabatni ifodalashga, nutq obyektini baholashga xizmat qiladi. Inson faoliyatining lisoniy birliklar orqali aks etishining natijasi sifatida metafora bir predmetni boshqasi bilan o'xshatish, qiyoslashga hamda ularning umumiy belgilarini alohida ajratishga

asoslanadi. Shu sababli metaforani yashirin o'xshatish ham deb atashadi. Vaqtinchalik, o'tkinchi, tasodifiy o'xshashliklarni belgilovchi o'xshatishdan farqli o'laroq metafora barqaror va turg'un o'xshashliklarni ifodalaydi.

Aksiologik metaforalar o'zining boshqa lisoniy turlariga nisbatan yanada murakkabroq ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ular o'zlari mansub xalqning obrazli-assotsiativ tushunchalari qobig'ida shakllangan bo'lib, insonga xos barcha sifatlarni baholashga xizmat qiladi hamda subyekt faoliyatining hamma qirralariga oid malaka va tajribalarni o'zida aks ettiradi.

An'anaviy nuqtai nazardan metafora turlicha talqin qilib kelindi. Bu esa metaforaga lisoniy vosita, matndagi asosida g'oya o'zlashtirish yotgan so'z o'zgarishi, so'z almashtirish natijasi sifatida qarashni taqozo qiladi. A.Hojiyev metaforaga nolingvistik jarayon sifatida qaraydi. Bunda u metafora uchun asos bo'lgan so'z ma'nosida biror bir o'zgarish bo'lmaganligiga, balki bu hodisa nom ko'chish asosida yuzaga kelishiga asoslanadi. Metaforik fikr qiyoslash orqali rivojlanadi va metaforaning yuzaga kelishi jarayoni kuzatiladi.

“Metaforasiz, – deb yozadi N.D.Arutyunova, – “ko'rinmas olam” (insonning ichki dunyosi) leksikasi bo'lmas edi”. Metafora bizning kundalik hayotimizga shu darajada singib ketganki, u nafaqat tilda, balki tafakkurimiz va harakatlarimizda ham o'z aksini topadi.

XX asrda lingvistik nuqtai nazardan o'rganib kelingan metafora kognitiv fanlar tadqiqi doirasiga ham tortila boshladi. Metafora XX asr oxiriga qadar, konseptual nazariyada metaforaning mavqeyi muammosi tilshunoslarni qiziqitira boshlaguncha, tasodifiy xarakterda bo'lib, unga alohida e'tibor qaratilmagan edi. E.Makkormakning “Metaforalarning kognitiv nazariyasi” nomli tadqiqotida kognitiv tilshunoslik doirasida metafora tafakkur usuli sifatida sinchiklab o'rganilgan va u bilish jarayoni mahsuli sifatida izohlangan. E.Makkormakning fikricha, metaforaning yuzaga kelishi ma'lum darajada semantik konseptlarni qiyoslash bilan aloqador. Metafora bir tomondan, uning tushunarli bo'lgan semantik referentlari mohiyatan mos kelishi bilan, boshqa tomondan esa ularning o'zaro mos kelmasligi, ya'ni metaforaning yangi ma'no anglatishga yo'naltirilganligi bilan bog'liq.

Metafora konseptuallashuvi masalasi murakkab jarayon sifatida tilshunoslarning diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Mazkur masala mohiyatini yoritish metaforaning baho ifodalashida yuzaga keluvchi jarayonlarni aniqlashni, baholovchi yoki uning aksi bo'lgan metaforik ma'nolar turlari va qonuniyatlarini tavsiflashni taqozo qiladi. Bu esa o'z navbatida mental metaforalarning turli ko'rinishlarini aniqlash, hal qilish hamda ushbu hodisaning yuzaga kelishiga metafora ko'rinishini oladigan konseptlar xarakteri va ularning lug'aviy voqelanishi qanday ta'sir qiladi, degan savolga javob berish zarurligini ko'rsatadi.

Birmuncha vaqt o'tgach, J.Lakoff va M.Jonson “Metaforalar: biz ular bilan yashaymiz” asarida konseptual metafora tushunchasini faollashtirdi va shu bilan

kognitiv lingvistika doirasida mustaqil yo'nalishning boshlanishini belgiladilar, metaforaning mohiyati, ya'ni uning «lokus»i tilda emas, fikrda, deb yozdilar. Metafora til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonidir. Metaforizatsiya ikkita konseptual: asos va maqsadli xususiyat bilim tuzilmalari (freymlar va ssenariylar) o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoniga asoslanadi. Metaforani kognitiv yondashuv asosida o'rganishning mezoni sifatida mental xususiyati (ontologik jihati) va kognitiv imkoniyati (gnoseologik aspekt) e'tiborga olinishi muhim. Ushbu nazariyaga ko'ra, inson mavhum mulohazalarni tahlil qilish va idrok etish, ularni tushunarli tilda taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday qilib, har bir inson tafakkur qiladi va fikrlaydi, metaforalar yordamida boshqa odamlar bilan ma'lumot almashadi, deb bahslashish mumkin.

Kognitiv yondashuvga ko'ra diskursda kognitiv metafora modelining semantik tuzilishini tahlil qilish uchun metaforik ko'chishga asos bo'ladigan zarur va maqsadli xususiyatlarini aniqlash muhim. Bu jarayon freym tuzilishi va metaforik modelni belgilab beradi. Freym modeli slotlardan tashkil topadi.

Inson o'zini o'rab turgan olam manzarasini anglash tajribasi natijasida shakllangan asosiy tushuncha elementlari asosida ikkinchi maqsadli kamroq tushunarsiz konseptual strukturani shakllantiradi. Metafora nazariyasiga bunday yondashuv, ya'ni uni yaratish jarayoni - til birliklarini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etishning yangi konseptual usuli vujudga keladi. Bunday tahlil natijasida mavhum tushunchalar idrok qilinadi, to'liq ma'no kasb etadi va fikr ifoda mazmuni reallashadi. Keyingi yillarda kognitiv tadqiqotlar o'z kuzatuv maydonini shu darajada kengaytirdiki, bugungi kunda mazkur yo'nalishda idrok, tafakkur, bilish, tushunish va izohlash muammolari bilan bog'liq masalalarni tahlil etishga bag'ishlangan ishlar yuzaga keldi. Y.S.Kubryakova o'zining "Kognitiv atamalarning qisqacha lug'ati"da metaforani konseptuallashuvning bir shakli sifatida belgilab, uni "yangi tushunchani shakllantiruvchi va ifodalovchi hamda yangi bilim olish imkonsiz bo'lgan kognitiv jarayon" sifatida izohlaydi. Demak, kognitiv nazariya metaforaning tilga oid tizimi va nutqiy shakllari orasidagi moslik va izchillikni o'rganishga imkon yaratadi. Uning asosida ongda bir maydonga birlashuvchi tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar yotadi va bir xil tushunchalarni turli atamalar bilan nomlash hamda ularning o'ziga xos xarakterli xususiyatlarni tavsiflash imkonini beradi.

Metafora shakllanishining kognitiv jarayonini tavsiflashga bag'ishlangan tadqiqotlarda u to'rt komponentdan tuzilganligi qayd etiladi:

- 1) metaforaning asosiy subyekti;
- 2) metaforaning yordamchi subyekti yoki metaforizator;
- 3) asosiy subyektning ayrim xususiyatlari;
- 4) metafora yordamchi subyektining ba'zi xususiyatlari.

Metaforalar hosil bo'lishida konnotatlar, ya'ni obrazda mustahkamlangan turg'un baholovchi belgilar muhim o'rin tutadi. Bu belgilar jismoniy, funksional, dinamik, subyektiv-psixologik va hokazo ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ular metafora hosil bo'lishida asos tushuncha sifatida ishtirok etadi. Til birliklarining uslubiy, ekspressivlik kabi qo'shimcha ma'nolar ifodalash, nutq obyektini baholash xususiyati ularga subyektiv munosabat ko'rsatkichlari sifatida qarash imkonini beradi.

Belgilarning qat'iylashgan ko'rinish olishi madaniy-tarixiy hodisa bo'lib, u har xil xalqlarda turlicha kechadi: masalan, Yevropa xalqlari uchun **ilon** leksemasi – “hiylakor”, arablarda – “donishmand”, hindlarda “ma'bud” ma'nosida qat'iylashgan. Yoki, tana tuzilishi va qiyofasi odamga o'xshash bo'lgan hayvon – maymun turkiy xalqlarda baholashda **badbashara** yoki **serpardozi**, **tinib-tinchimas** ma'nolarini ifodalasa, hindlarda esa sajda qilinadigan ma'bud sifatida e'tirof etiladi.

Ta'kidlash joizki, aksiologik baho freymlari shakllanishida milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ham muhim o'rin tutadi. Shu mezon asosida freym bir xalq madaniyatida ijobiy, boshqasida esa salbiy baho **ifodalaydi**. Bu fikrlar alohida metaforik freymini faollashtiruvchi **qo'y**, **ilon** kabi zoomorfizmlarga ham taalluqlidir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, badiiy konseptual metaforalar semantik jihatdan keng qamrovli bo'lib, ularda asos bo'lib kelayotgan leksema bir paytning o'zida bir necha semani ifodalaydi.

Metaforaning yuzaga kelish jarayoni turli aqliy-idrokiy hodisaning mental modellashuvining o'xshashligi bilan izohlanadi. Umuman olganda, yordamchi subyektga xos xususiyatlarning asosiy subyektga ko'chirilishi tufayli hosil qilingan obrazli metaforalar haqida fikr yuritish mumkin. Metaforalarning ushbu turi mental modellar bilan, ya'ni bizning obyektiv voqelikdagi obyektlar, hodisalar, faktlar, qonuniyatlar haqidagi tasavvurlarimiz, bilimlarimiz aks etadigan freym, sxemalar, manzaralar bilan bog'liq. Aynan ularda shu turg'un belgilar egasi bo'lgan (metafora) yordamchi subyekt xususiyatlari haqidagi bilimlar mujassam bo'ladi: **hayvon** qo'pol, tushunishni hohlamaydigan qoloq, johil (odam); **to'nka** qo'pol, aqlsiz, ahmoq, fahmsiz (kishi) kabilar.

Metafora hodisasining yuzaga kelishi bir necha bosqichdan iborat kognitiv jarayonlarni qamrab oladi.

Obyektning qat'iylashgan freymi uning boshqa subyektlar bilan o'zaro aloqasi va tajribasi asosida belgilangan mezonlarga muvofiq bir necha qismlardan tashkil topadi.

Metafora hosil bo'lishining dastlabki kognitiv jarayoni tayanch slotlarni (bosqich, qism) *belgilab olish* hisoblanadi. Tavsif mezoni sifatida ushbu slot nutq obyektini haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Demak, slot – freym ichidagi **o'zgaruvchan element, parametr yoki atribut** hisoblanadi. Shunday ekan, metafora bir yoki bir necha slotlardagi ma'lumotga daxldor bo'lishi mumkin. Masalan, zoonimlar: **tulki, cho'chqa, eshak, ho'kiz, buzoq, it** kabi; ornitonimlar: **laylak, qarg'a,**

olashaqshaq va boshqa freymlarda tashqi ko‘rinish, yashash joyi, harakatlari, odatlari, qiliqlari kabi xususiyatlari slotlar mavjudligini taqozo qiladi. Unda baholovchi element slotlarning kognitiv qayta ishlanishi natijasida yuz beradi. Kognitiv jarayonning bunday turi aksiologik baholovchi ma‘noni shakllantirish uchun xosdir.

Metafora shakllanishining ikkinchi kognitiv bosqichida obyektga u haqidagi turg‘un tasavvurlar asosida sifat beriladi. Baholashda ular juda kuchli darajada ifodalanadi: **tulki** freymining qiliq slotida epchil, o‘zining asli niyatini yashirib, yolg‘on yo‘l bilan ish qiluvchi ma‘nolarini umumlashtiruvchi ayyorlik belgisi qat‘iylashgan. Uning baholovchi vositaga aylanishini boshqa bir jarayon, ya‘ni predmet yoki hodisaning asli mohiyati saqlangan holda yangi xossalar paydo bo‘lishi bilan namoyon bo‘ladigan o‘zgarishini ko‘rib chiqish orqali izohlash mumkin. U shuningdek, “qiliq, odatlar” slotiga va subyekt kommunikativ maqsadiga taalluqlidir. Ta‘kidlanganidek, ular deyarli hamma vaqt yangi ko‘rinishga o‘tadi. Dastlabki holatda subyekt (tulki)ning maqsadi – o‘z hayotini asrab qolish yoki omadli ov uchun hiyla ishlatish hisoblanadi. Dunyoning qadriyatli manzarasida u oddiy hayvonning bir turi sifatida salbiy bahoga ega emas. U o‘zaro insoniy munosabatlarda yangi ko‘rinish oladi, bunda metafora subyekt (ammo baho obyekti)ning maqsadi – boshqa kishini aldashdir. Ushbu hodisaning o‘zi salbiy ijtimoiy bahoga ega bo‘ladi.

Kognitiv jarayonning oxirgi bosqichida hayvon – inson – qiliq – odat slotlari kerakli ma‘lumotlar bilan to‘ldiriladi. Bunda yangi xossalar paydo bo‘lishi bilan namoyon bo‘ladigan o‘zgarishlar hisobga olinadi va shu asosda yangi baholovchi konsept hosil bo‘ladi.

Baholovchi metaforalashish jarayonini **tulki** leksemasi asosida quyidagicha sxemaga solish mumkin:

Slotlar	tulki (birinchi ma‘no)	---->	tulki (ikkinchi ma‘no)
1 – slot	hayvon	---->	inson
1 – slot	tashqi ko‘rinish	---->	tashqi qiyofa
1 – slot	yashash makoni	---->	yashash joyi
1 – slot	qiliq, odatlari	---->	o‘zini tutishi
1- kognitiv jarayon slotlarni belgilash 2- kognitiv jarayon sifatlash 3- kognitiv jarayon yangi ma‘nolar hosil bo‘lishi 4-kognitiv jarayon konseptuallashish			

Izoh: Sifatlashda va alohida ma‘no hosil qilishda ishtirok etadigan turli ma‘noli freymlarning slotlari bir xil bo‘yoqqa ega bo‘ladi. **Tulki** leksemasining ikkinchi ma‘nosi asosiy ma‘no freymining 1 va 4-slotlari asosida shakllanadi va 1,2- va 4-slotlar konnotativ ma‘no ifodalash va konseptuallashuvga imkoniyat yaratadi.

Ta'kidlash joizki, *tulki* freymi o'z tabiatiga ko'ra turg'undir. Shunday bo'lsa-da, tahlil unda o'zini tutishning rivojlanib boruvchi modeli mavjudligini ko'rsatadi va bu model baholovchi freymni adresatga olib chiqadi, chunki adresat tomonidan ushbu modelning talqin qilinishi munosabat bildirishning ma'lum strategiyasini tanlashni taqozo qiladi. Kognitiv amallar tahlili shuni ko'rsatadiki, aniq leksemaga asoslanadigan metafora hosil bo'lishida so'z ma'nosi yoki u bilan bog'liq mantiqiy tushuncha emas, balki subyektning ijtimoiy hayotdagi narsa va predmetlar, holatlar to'g'risidagi tasavvurlari e'tiborga olinadi. Nutqda metaforalashish jarayonida aktaullashishga asos bo'lgan belgilar natijasida siljish yuz berishi tufayli yangi hosila ma'no (metafora) shakllanadi.

Subyektning qadriyat haqidagi qat'iydashgan tasavvurlari yangi bilimlar olishda muhim o'rin tutadi. Ushbu hodisa asosida yotgan qat'iydashgan shakldagi baholash metafora denotatining presuppozitsion ma'nolarini ijobiy yoki salbiylik nuqtai nazaridan talqin qilish imkonini beradi. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, freymlarni bizning dunyo haqidagi bilimlarimiz aks etadigan presuppozitsion model sifatida tasavvur qilish mumkin. Kognitiv tahlil baho kategoriyasini tadqiq qilishda, ayniqsa, ahamiyatlidir, chunki u baholovchi ma'nolar pragmatik tabiatini hamda insonga ta'sir xususiyatini izohlaydi.

Umuman olganda, bunday tadqiqotlarda inson omili, shaxs va til munosabatiga e'tibor kuchayib borayotganligi kognitiv paradigma mazmun-mohiyatini voqelik faktlarini idrok etish, voqea-hodisalarning yuzaga kelish sabablarini bilish, tushunish, ularni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishga oid yangi tushunchalar va kategoriyalarning hosil bo'lishiga zamin hozirlamoqda.